

SADDI- ISKANDARIY ASARIDAGI ISKANDAR ETNOGENEZI

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universitetining Yaponshunoslik fakulteti yapon-ingliz guruhi talabasi

Jabborova Umida Panji qizi

Annatsiya: Bu maqolada mashhur g`azalnafis Alisher Navoiyning asarlaridan biri "Saddi Iskandariy" dostoni ko`rib chiqilgan. Bu asarda Alisher Navoiy o`z mohirligi bilan dostonning asosiy qahramoni Iskandarni tasvirlab berishi haqidadir.

Kalit so`zlar: sarkarda, arz, oyat, tobut, g`azal, sulton, timsol, so`fiyona.

G'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy "Xamsa"sining yakunlovchi dostoni "Saddi Iskandariy" dir. Doston o'ta mohirlik bilan yozilgan bo'lib, o'quvchi bir marta o'qigandan tushunib oladigan asarlardan biridir. Dastlab musulmon dunyosida Qur'oni Karimning Kahf surasida nomi zikr etilgan hukmdor Zulqarnayn (Ikki shoxli, 18 sura, 83–98 oyatlar) hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi Aleksandrni bitta shaxs deb bilishgan va u sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan. Mazkur Iskandarnomalarga Iskandar timsolidagi Aleksandr faoliyati mavzu qilib olingan. Ammo asarlarda Iskandar timsoli tarixiylikdan tobora uzoqlashib, badiiy to'qima obrazga aylana borgan. Har bir hamsanavis Iskandar timsolida o'z ideallarini yaratishga harakat qilgan. Bular sirasiga Jomiy, Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy kabi ijodkorlar kiradi. Bu adiblarimiz Iskandar timlosini o'z asarlarida turlicha tasvirlaydi. Navoiy ham o'z asarida Iskandarni o'ta mahorat bilan gavdalantiradi. Navoiy safdoshlaridan farqli o'laroq, tarixiylikka, ko'proq tarix kitoblariga tayanib ish ko'rganini yozadi. Navoiy bu o'rinda o'z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur'ondagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs Aleksandr faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning „Saddi Iskandariy“ deb nomlanishida ham Qur'oni Karimning Navoiy uchun tuganmas manba bo'lganligi seziladi. Navoiy talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni nohaqlikdan, kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, mamlakatda adolat o'rnatish, belgilangan tartib qoidalarni katta ommaga joriy qilish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa so'fiyona talqin bo'lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko'rish mumkin. Asarda Navoiy insonni bu

foniyl dunyoning hoy-u havaslariga ortiqcha ruju qo'ymaslikka chaqirib, garchi Iskandar jahonni egallagan buyuk sarkarda bo'lsada, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi. "Saddi Iskandariy" asarida Iskandar obrazini tasvirlashda badiiy mahorat talab qilinadi. Misrlik hukmdor, Dori II ning o'g'li bo'lgan Iskandar aqlda tengi yo'q, jasoaratli sarkarda bo'lgan. Iskandar haqidagi turlicha qarashlar mavjud. Ba'zilar uni Eron shohi Doro II ning og'li deb ko'rsatadi. Ba'zilar esa Misr firavnlari borib taqaydi. Ayrimlar nuqtai nazarida esa, Iskandar topib olingan farzand. Faylaqus (Flipp II) Allohdan farzand so'raydi. Bir kuni Faylaqus ovdan qaytarkan, bir kulba yonida yangi ko'zi yorigan ayolga duch keladi. Ayol ko'zi yorib, o'lik holda yotardi. Farzandi esa o'g'il va sog' salomat edi. Shunda Faylaqus bolani olib, unga Iskandar deb nom qo'yadi. Uni o'zi tarbiyalaydi. O'limi oldidan uni valiahd etib tayinlaydi va o'z o'rniga shoh qilib qo'yadi. Navoiy ham o'z asariga shu muqobilni kiritgan. Iskandar boshqa shohlar singari taxtga o'ch emas edi. Otasi unga taxtni ishonib topshirganidan havotirda edi. Arastu uning boshiga tojni kiygizmaguncha u deyarli taxt ishlariga aralasholmasdi. U xalq, omma oldiga shart qo'yadi. Oddiy xalqlar ham o'zini shohga teng ko'rib, arz dodini bemalol aytishini so'raydi. Iskandar xalqning qiynalishlarini bartaraf qilish maqsadida aholi ikki yillik soliqlardan ozod qiladi. "Saddi Iskandariy" asari Iskandar tarixini yaratish maqsadida qo'yilgan bo'lmasada, lekin kitobxon uning yurishlari haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ladi. Masalan, Iskandar Eronni egallagach, butun jahonni fath etishga harakat qiladi. Qanchadan qancha sarkardalar unga bo'ysinadi. Lekin Kashmir, Hind va Chin hoqonlari unga bo'ysinishni istamaydi. Iskandar Xuroson va Mavarounnahrni egallab, Samarqand va Hirot shaharlarini egallab olgandan so'ng Kashmir tomon yurish qiladi. Ilm va hikmat bilan Kashmirni ham qo'lga kiritadi. Buni ko'rgan Hind shohi urishsiz unga tobe bo'ladi. Xatto, Chin hoqoni elchi kiyimida kelib, Iskandarning shon-shuhratiga tan beradi. Ko'plab sovg'a salomlar bilan siylaydi. Iskandarning keyingi yurishi Mag'ribda edi. Suv quruqliklardan o'tib, Mag'ribga yetib boradi. U yerdagi aholini yaxshiylardan himoya qilib, shimol tomonga yurish qiladi. Farang, Rusdan o'tib, Qirvon degan hududga yetib keladi. U yerda yajujlardan himoya qilish maqsadida Saddi Iskandariyni qurdiradi. Rumga qaytib kelib, dengiz safariga chiqib ketadi. Shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi. Dengizda turli xil ajoyibotlarni ko'rib, vataniga qaytib keladi. Iskandar kasallikka chalinib yotib qoladi. Oxirida onasi Bonuga o'g'illikni o'z o'rnida qo'ya olmagan uchun uzr so'rab xat yozadi. Iskandar bu dunyodan vafot etar ekan, tobutdan bir qo'lini chiqarib qo'yishlarini iltimos qiladi. Bu bir ibrat, pand yo'lidagi iltimosi edi. Jahonni egallagan Jahongirning u dunyoga

hech narsasiz ochiq qo'l bilan ketayotganiga ishora edi. Bu dunyoda qo'lga kiritgan butun davlating shu dunyoda qoladi, binobarin, har bir narsada aql bilan ish tutmoq lozim degan ma'no anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni konkordansi. 2016.
- 2.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`lami. 11-jild. 1993.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. 2017.